



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 12-avgust

400-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyat hokimining 2024-yil 6-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Paxtachilik sohasi korxonalarining iqtisodiy-moliyaviy holatini yaxshilashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 22-iyuldagi PF-103-son Farmoni ijrosi haqida”gi 357-6-0-Q/24-sonli qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Paxtachilik sohasi korxonalarining iqtisodiy-moliyaviy holatini yaxshilashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 22-iyuldagi PF-103-son Farmoni hamda Namangan viloyat hokimining 2024-yil 6-avgustdagi 357-6-0-Q/24 sonli qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyat hokimining 2024-yil 6-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Paxtachilik sohasi korxonalarining iqtisodiy-moliyaviy holatini yaxshilashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 22-iyuldagi PF-103-son Farmoni ijrosi haqida”gi 357-6-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur 2024-yil 22-iyuldagi PF-103-son Farmoni bilan:

Paxta-to‘qimachilik klasterlarini (keyingi o‘rinlarda – klasterlar) moliyaviy sog‘lomlashtirishga qaratilgan quyidagi choralar belgilanganligi:

Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi (keyingi o‘rinlarda – Jamg‘arma) kredit resurslari hisobidan 2023-yilgi paxta xomashyosini yetishtirish xarajatlari uchun tijorat banklari tomonidan ajratilgan imtiyozli kreditlarni 2024-yil 1-dekabrga qadar to‘liq qaytargan klasterlarga ushbu kredit bo‘yicha foiz to‘lovlari (bank marjasidan tashqari) 2025-yil 1-yanvarga qadar Jamg‘arma hisobidan qaytarib berilishi;

2023-yilgi paxta xomashyosini yetishtirish xarajatlari uchun klasterlarga ajratilgan imtiyozli kreditlarning, mos ravishda Jamg‘armaning tijorat banklariga ajratgan kredit resurslarining qoldig‘ini qaytarish muddati tijorat banklarining ijobiy xulosasi asosida 2025-yil 1-aprelga qadar uzaytirilganligi;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar hokimlari va qishloq xo‘jaligi vaziriga:

klasterlarni tashkil etish va qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarni ularga biriktirishda talabgorlarning paxtachilik sohasidagi tajribasi, moddiy va moliyaviy salohiyati inobatga olinmaganligi;

klaster faoliyati doirasida tuzilgan bitimlar bo‘yicha o‘z majburiyatlarini surunkali ravishda bajarmay kelayotgan, tijorat banklari oldidagi kredit qarzlarni muntazam qaytarmayotgan, o‘z moliyaviy salohiyatini inobatga olmasdan yuqori kredit yukini yuzaga keltirgan, fermerlar bilan 2023-yilgi paxta xomashyosi uchun hanuzgacha to‘liq hisob-kitob qilmagan klasterlar bilan ishlash va tegishli choralarni ko‘rishda sustkashlik va mas’uliyatsizlikka yo‘l qo‘yilganligi;

klasterlar zimmasiga turli yo‘nalishdagi samarasiz loyihalarni, ularning to‘g‘ridan-to‘g‘ri faoliyatiga bog‘liq bo‘lmagan tadbirlarni amalga oshirishni yuklash orqali klasterlarning moliyaviy holatiga putur yetkazilganligi;

elektron tarozi orqali qabul qilingan paxta xomashyosi va ishlab chiqarilgan paxta tolasini avtomatlashgan majburiy hisobga olish tizimini joriy qilish va uni “Agroplatforma” axborot tizimiga integratsiya qilish bo‘yicha ishlar yakunlanmaganligi ko‘rsatib o‘tilganligi;

Belgilanishicha, 2024-yil 1-avgustdan boshlab Jamg‘arma kredit resurslari hisobidan tijorat banklari tomonidan ajratiladigan kreditlar bo‘yicha klasterlar ta’rischilarining shaxsiy kafilligi qo‘shimcha ravishda rasmiylashtirilishi;

Hisob palatasi boshchiligida Bosh prokuratura, Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari, Soliq qo‘mitasi, Jamg‘arma, tijorat banklaridan iborat Majburiyalarni bajarmagan paxta-to‘qimachilik klasterlarining faoliyatini tartibga solish bo‘yicha ishchi guruh tarkibi (keyingi o‘rinlarda – Ishchi guruh) 1-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

Vazirlar Mahkamasi (A.Aripov) bir hafta muddatda Ishchi guruhning asosiy vazifalarini belgilab berishi va uning faoliyatini muvofiqlashtirib borishi; Ishchi guruh ikki oy muddatda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasiga amalga oshirilgan ishlar yuzasidan axborot kiritishi;

O‘zbekiston Respublikasi ayrim hujjatlariga 2-ilovaga muvofiq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilganligi inobatga olinsin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 22-iyuldagi PF-103-son Farmoni bilan quyidagilar:

a) bo‘lib-bo‘lib to‘lash sharti bilan sotib olingan va sotib olish qiymatining 35 foizi va undan yuqori qismi to‘langan paxta tozalash zavodlari va paxta qabul qilish maskanlarini (keyingi o‘rinlarda mulkiy majmua) jalb etiladigan kredit bo‘yicha mulkiy majmua sifatida garovga qo‘yishga ruxsat berilganligi;

bunda mulkiy majmualarni sotib olish bo'yicha to'lovlarning qolgan qismini amalga oshirish ta'minoti sifatida sug'urta kompaniyasining to'lovni amalga oshirmaslik sug'urta polisi va (yoki) uchinchi shaxs kafilligi yoxud boshqa bank kafolati taqdim etilishi;

kredit qarzdorligi hisobiga mulkiy majmualar garov mulki sifatida tijorat banklari tasarrufiga o'tkazilganda, mulkiy majmuani savdolarga chiqarish ularning faoliyat turlarini saqlab qolish sharti bilan amalga oshirilishi;

b) tugatilayotgan "O'zpaxtasanoat" AJning mulkiy majmualarini sotib olish bo'yicha klasterlar bilan tuzilgan oldi-sotdi shartnomalarida belgilangan to'lov grafigi bo'yicha qarzdorliklar muddatini bir yilga uzaytirilishi;

klasterlarning to'lovga qobiliyatsizligi ishtirokchi sifatidagi shaxsning aybi tufayli vujudga kelgan bo'lsa, klasterning mol-mulki yetarli bo'lmagan taqdirda bunday shaxs zimmasiga uning majburiyatlari bo'yicha subsidiar javobgarlik yuklatilishi mumkinligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

4.Tuman hokimining qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosari B.Muydinov, tuman qishloq xojaligi bo'limi A.Xakimov tegishli tashkilotlar bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 22-iyuldagi PF-103-son Farmoni asosida ish tashkil qilsinlar.

5.Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Tuman hokimi



A.Mansurov